

ULUG‘BEK HAMDAMNING „BIR PIYOLA SUV“HIKOYASINING BADIY TALQINI.

Ibrohimova Marjonaxon A‘zamjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Ulug‘bek Hamdamning “Bir piyola suv” hikoyasi kompozitsiyasi, g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishi, obrazlar tizimi, adabiy ramziylik va psixologizm nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Asarda suv obrazi timsol sifatida qanday mazmun yuklashi, hikoyadagi konflikt va insoniylik masalalarining badiiy talqini ochib beriladi. Shuningdek, yozuvchining uslub xususiyatlari hamda hikoyaning zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi o‘rni haqida ilmiy xulosalar beriladi.

KALIT SO‘ZLAR: Ulug‘bek, Hamdam, hikoya, badiiy tahlil, suv timsoli, ramziylik, psixologizm, konflikt, ma‘naviyat, insoniylik.

KIRISH

O‘zbek zamonaviy nasrida Ulug‘bek Hamdamning ijodi o‘zgacha falsafiy yondashuv, ma‘naviy qatlamlar va ramziy obrazlarga boyligi bilan ajralib turadi. “Bir piyola suv” hikoyasi yozuvchining ixcham shaklda katta ma‘naviy mazmun berish mahoratini yaqqol namoyon etadi. Hikoya hajman kichik bo‘lsa-da, unda jamiyat, insoniylik, saxovat, niyat pokligi kabi muhim g‘oyalar teran badiiy vositalar bilan yoritilgan.

Ulug‘bek Hamdam ijodiga nazar tashlar ekanmiz, bir qarashda unda qadimiy hikoyachilik unsurlarini, yana bir qarashda afsona-yu rivoyatlar hikoya unsurlarini yana bir qarashda esa diniy qarashlarimiz bilan ohangdosh jihatlarni ko‘ramiz. Boshqacha qilib aytganda ana shu uchta bayon uslubining hamohagnligini, umumlashmasini ko‘ramiz. Yozuvchining “Bir piyola suv” hikoyasi markazida oddiy lekin ramziy mazmunga ega voqea-tashnalikka duch kelgan odamga suv berish yoki bermaslik masalasi turadi. Bu soddagina holat orqali yozuvchi insoniylikning chegarasi, rahm-shavqat, niyatning pokligi, ezgulikning qadri kabi adabiy mavzularni yoritadi. Hikoya g‘oyasining markazida

shunday savol turadi: Insonni buyuk qiladigan narsa nima-boylikmi, martabami yoki ezgulik sari intilishmi?.

Yozuvchi javobni oddiy bir amal orqali beradi: bir piyola suv berish ham insonning asl qadrini belgilaydi.

Hikoya quyidagi jumlar bilan boshlanadi: "...Menga vazifa yuklatilgan edi. Biroq nima uchun aynan menga? – bilmayman. Kim va qanday vaziyatda topshiriq berdi? – buni ham negadir eslay olmayman. Yodimda qolgani – nimadir ortilgan, ikkita ot qo'shilgan aravani shom tushgunga qadar manzilga eltishim zarur. Nega endi shomga qadar?.."

Ushbu boshlanmaning birinchi (Menga vazifa yuklatilgan edi) gapida juda ko'p ma'lumot yashiringan. Birinchidan, mazkur boshlanma garchi asarning boshlanmasi sifatida berilgan bo'lsa ham, o'tgan asr o'zbek hikoyanavisligida an'ana bo'lgan "epigraf" ning ham vazifasini o'tamoqda. Ikkinchidan, mazkur boshlanma jumlada kishining umri davomida amalga oshirishi lozim bo'lgan, ya'ni taqdiri azalga ishora seziladi. Chunki, har bir kishiga uning taqdiri oldindan belgilab qo'yilgan bo'lishi haqidagi aqidaga e'tiborni yo'naltirishga xizmat qiladi. Abdulla Qahhor hikoyalaridagi epigraflarni esimizga olsak, jumladan: "O'g'ri" dagi "...Otning o'limi – itning bayrami" yoki "Bemor" da "...Osmon yiroq – yer qattiq..." kabi deyarli barcha hikoyalar epigraf bilan boshlangan. Ulg'bek Hamdamning "Bir piyola suv" hikoyasida rasman epigraf qayd qilinmasa-da, hikoyaning birinchi jumlasiga o'ta yuqori vazifa yuklatilganki, bu uning epigrafi bajarishi mumkin bo'lgan ishni ham o'z yelkasiga olgan. Hikoya nomlanishining o'zidayoq, yozuvchi "suv" timsoliga murojaat qilganki, olamning yaratilishidagi "chor unsur" ning biri ham, albatta, suv ekanligiga o'quvchi nigohini yo'naltiradi.

Shu o'rinda bir nasani alohida ta'kidlash lozimki, "zimmasiga vazifa yuklangan", "kengliklarga nazar solib", "haqirib borayotgan kimsa" o'quvchi uchun mavhum, sirli holatda yozuvchi tomonidan mohirona yashirib turiladi. Buning o'ziga xosligi shundaki, bu obraz yoki personaj yozuvchining o'zi bo'lishi ham, shuningdek, mazkur hikoyani o'qib turgan o'quvchi ham bo'lib chiqishi mumkin. Chunki, mazkur hikoyada bayon etilayotgan holat har bir kishining ham hayolidan o'tishi, har bir shaxsga ham mos bo'lishi mumkin.

Ufqlarga tutash kengliklar hislarimni junbishga keltiradi. Ichim to‘la hayot, kuchim tanamga sig‘may tevarakni titratib hayqiraman – “Uuu–luuu-uuug‘!..” Sal o‘tmay atrofdanaks-sado qaytadi: “G‘uuu-luuu-uuu-uuu!!!” Ilkis cho‘chib tushaman, ichim muzlabketadi. Saratonning issig‘ida peshonamdan sovuqdan-sovuq ter quyiladi.¹

Ushbu parchada keltirilgan olamning, borliqning kengligiga va unda inson bir mayda zarra kabi ekanligiga ishora etuvchi “...ufqlarga tutash kengliklar” yoki “...ichim to‘la hayot, kuchim tanamga sig‘maydi” singari insonning qudrati cheksiz ekanligini ifoda etishga xizmat qiluvchi jumlar alohida bayon etish uslubini yuzaga keltirganligini e‘tirof etish joyiz.

Hikoyaning kompozitsion qurilishi:

- Ekspozitsiya — tashnalik va suv izlab yurgan odamning holati;
- Tugun — suv so‘ralishi va unga bo‘lgan munosabat;
- Kulminatsiya — qaror lahzasi: suv berish-bermaslik;
- Yechim— bitta siljish, bitta amaliy xatti-harakat qahramonning butun ichki olamini o‘zgartiradi.

Asarning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati:

“Bir piyola suv” hikoyasi bugungi jamiyatda ham o‘z dolzarbligini saqlab turadi. Hikoya insoniylikning qadri haqida o‘ylashga undaydi, ezgu ishning hech qachon bekor ketmasligini anglatadi, kichik yaxshilikning ham ulkan ma’naviy meros ekanini ko‘rsatadi. Zamonaviy tezkor hayotda odamlar ko‘pincha ruhiy qadriyatlardan uzoqlashib borayotgan paytda bu hikoya ma’naviy uyg‘otuvchidir.

Xulosa qilib aytganda, Ulug‘bek Hamdamning “Bir piyola suv” hikoyasi hajman kichik bo‘lsa ham, mazmunan nihoyatda teran, ramziy va falsafiy qatlamlarga boy asardir. Unda suv orqali ezgulik, rahm-shafqat, insoniylik, vijdon kabi abadiy qadriyatlar yoritiladi.

¹ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/ulugbek-hamdami/ulugbek-hamdami-bir-piyola-suv-hikoya/>

Hikoya kompozitsiyasi, obrazlarning psixologik ochilishi va ramziy detallari uning zamonaviy o'zbek nasrining yirik namunalaridan biriga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilmurod Quronov, „Adabiyot nazariyasi asoslari“ 2018 T:Navoiy universiteti.
- 2.I.Sulton „Adabiyot nazariyasi“.Toshkent 1980.
- 3.<https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/ulugbek-hamdam/ulugbek-hamdam-bir-piyola-suv-hikoya/>
- 4.Ulug‘bek Hamdam „Tolin oy qissasi“hikoyalar T:O‘zbekiston 2017.